

TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN
MUAMMOLAR

ASHUROVA SIMORA RO'ZIQUL qizi

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi talabasi

Tel: 99899 0537604; simoraashurova6@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarjima jarayonida duch keladigan muammolar shuningdek o'zaro qardosh tillar orasidagi muammolarni yoritib berishga qaratilgan bo'lib, soxta ekvivalentlar va uni tarjimada qo'llash kabi muammolarni ko'rsatib berish va o'zaro yaqin tillar orasida yozma va ketma-ket tarjima muammolarining dolzarbligini talab qiladi.*

***Kalit so'zlar:** tarjima, tarjima muammolari, tarjimon, tarjima usullari, termin.*

***Abstract.** This article aims to highlight the problems encountered in the translation process as well as the problems between mutually sister languages, showing problems such as false equivalents and its application in translation and requiring the relevance of written and sequential translation problems between closely related languages.*

***Keywords:** translation, translation problems, translator, translation methods, term.*

***Аннотация.** В этой статье Проблемы, с которыми мы сталкиваемся в процессе перевода, также направлены на то, чтобы осветить проблемы, с которыми мы сталкиваемся в процессе перевода, а также показать такие проблемы, как ложные эквиваленты и их применение в переводе, и потребовать актуальности проблем письменного и последовательного перевода между близкородственными языками.*

Ключевые слова: перевод, проблемы перевода, Переводчик, методы перевода, термин.

Таржима — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima - millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan., „Tarjima“ termini bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi.

Biz asarlarni, matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilayotganimizda bir qancha muammolarga duch kelamiz. Masalan qilib oladigan bo‘lsak: lingvistik muammolar va ekstralingvistik muammolar. Bundan tashqari tarjimon biror bir asar yoki matnlarni tarjima qilayotganda, u doimo so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay olishi, ikki til o‘rtasidagi bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglagan holda asarni tarjima qilishi kerak. Agarda tarjima qilinayotgan asar ilmiy yo‘nalishda bo‘lsa ya‘ni, biror bir fanga doir bo‘lsa, bu tarjimada biz faqatgina badiiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lmagan so‘zlardan foydalangan holda bu asarni tarjima qilishimiz kerak. Tarjima haqida gap ketar ekan tarjima va uning turlari haqida to‘xtalishni ma‘qul deb topamiz. Terminni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilar ekanmiz quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin; a) Tarjima qilinalayotgan tilda aynan o‘sha terminning ma‘nosini bildiradigan so‘zning mavjud emasligi. b) Tarjima qiliniyotgan termin bir ma‘noga ega emasligi. Bu uchraydigan muammoni faqatgina kontekstdan kelib chiqib tarjima qilish usuli bilangina yechish mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish va temin tarjima jarayonini yengilroq qilish uchun quyidagi tarjima usullarini taklif qilamiz: 1) Transleteratsiya ushbu usulda termin asliyat tilida qanday bo‘lsa grafik ya‘ni harfma har qanday bo‘lsa shunday tarjima qilinadi. 2) Transkripsiya tovush formalari orqali tarjima qilish usuli yani tarjim qiliniyotgan tilda qanday aytilsa huddi shunday talaffuz qilib. 3) Kalka

usulida tarjima qilish. Ushbu tarjima turi tarjimon uchun eng qulay usullardan biri hisoblanib aynan bir tilda bor terminning ikkinchi bir tildag semantikasini to'liq saqlab qolgan tarzda so'zma so'z tarjima to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish. 4) Izohli tarjima usuli. Izohli tarjima usuli bir tilda mavjud bo'lgan termin boshqa bir tilga tarjima qilish jarayonida muqobil varianti to'pilmagan taqdirda aynan o'sha terminga izoh berish orqali tarjima qilish.

Lingvistik muammolar: bu turdagi muammolar manba tilidagi so'zlar, iboralar yoki grammatik tuzilmalarni maqsadli tilga to'g'ri va o'xshash ma'noda o'tkazish qiyinchiliklarini o'z ichiga oladi. Bunga quyidagilar kiradi:

So'zlarning bir nechta ma'noga ega bo'lishi (polysemiya): Kontekstni aniq tushunmasdan, noto'g'ri ma'noni tanlash xavfi mavjud.

Falsafiy tushunchalar va madaniy konnotatsiyalar: Manba tilida oddiy tuyulgan tushunchalar maqsadli til va madaniyatida boshqacha ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Til tuzilmalarining farqi (grammatik tuzilmalar, so'z tartibi): Manba va maqsadli tillarning grammatik tuzilmalari o'rtasidagi farqlar tarjima jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

Terminologiya: Ixtisoslashgan sohalardagi maxsus terminlarni tarjima qilish uchun chuqur bilimlar talab etiladi.

Idiom va frazeologik birliklar: Idiom va frazeologik birliklarni to'g'ri tarjima qilish qiyin, chunki ularning ma'nosi so'zlarning har birining ma'nosi bilan belgilanadi.

Ekstralingvistik muammo – til tashqarisidagi omillar tufayli yuzaga keladigan muammo. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Madaniy farqlar: Manba matnining ma'nosi bir madaniyatda ma'lum bir tarzda tushinib olinadi, lekin boshqa madaniyatda boshqacha tushuniladi. Masalan, idiomatik ifodalar, urf-odatlar, qadriyatlar va normani tushunishdagi farqlar.

Siyosiy va ijtimoiy kontekst: Siyosiy yoki ijtimoiy sharoit tarjimada muhim rol o'ynaydi. Matnning ma'nosi ma'lum bir tarixiy yoki ijtimoiy voqelik bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Texnologiya: Ba'zi holatlarda, tarjima jarayoni texnologiya imkoniyatlari bilan chegaralanishi mumkin. Masalan, tarjimini texnologik jihatdan o'tkazib bo'lmaydigan matnlar (masalan, rasmi matnlar, multimedia matnlar).

Vaqt va resurslar: Tarjima uchun belgilangan vaqt yoki resurslar cheklovlariga duch kelish. Masalan, tarjima qilish uchun oz vaqt berilishi, odatdagidek sifatli tarjima imkoniyatini toraytiradi.

Maqsadli auditoriyaga oid xususiyatlar: Yosh, jinsiy aloqa, madaniy oraliqlar, tilni bilish darajasi kabi omillarni e'tiborga olish tarjima sifatiga ta'sir qiladi.

Tarjimon — tarjima ishi bilan, ya'ni bir tildagi (manba tili) yozma yoki og'zaki matnga boshqa bir tilda (tarjima tili) yozma yoki og'zaki ekvivalent matn yaratish bilan shug'ullanadigan mutaxassis.

Zamonaviy davrda bunday mutaxassis, odatda, maxsus oliy ma'lumotga ega bo'lishi kerak; bu tarjima yoki keng filologik yo'nalishdagi oliy ma'lumot bo'lishi mumkin va sohaga oid (iqtisodiy, yuridik, texnik, tibbiy va boshqalar) tarjimalarni amalga oshirish uchun shaxs faoliyatining tegishli sohasida oliy ma'lumotga ega — iqtisodchilar, huquqshunoslar, muhandislar, shifokorlar, mashinistlar, ular o'zining oliy ma'lumoti va kasbiy aloqa sferasida tarjimonlarni tayyorlash kurslari doirasida olishi mumkin bo'lgan yetarlicha lingvistik va tarjimonlik tayyorgarligiga ega bo'lgan holatda jalb qilinadi.

Termin ([lotincha](#): *terminus* — „chegara“, „had“) — bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi. Termin umumxalq tshtiga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi, binobarin, termin va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir. Sistem xarakterga egalik, o'z terminologik maydonida bir ma'nolilikka moyillik, histuyg'uni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga

XOS

xususiyatlardir. Biologiya, matematika, tilshunoslikda qo‘llanadigan „*funksiya*“ so‘zini ko‘p ma’noli termin sifatida emas, balki terminologik omonimlar, sohalararo sodir bo‘lib turadigan reterminologik jarayon (bir soha termin ining ikkinchi soha termini sifatida qo‘llanishi) hosilasi tarzida qaralmog‘i lozim. Masalan, *quloq, burun, tomoq* — anatomiya va tibbiyot; *gilam, sholcha, palos* — gilamdo‘zlik; *kitob, ruchka, daftar* — pedagogik soha terminlari bo‘lish bilan birga umumxalq tilida faol qo‘llanadi.

XULOSA: Tarjima jarayonida turli leksik, semantik, stilistik, grammatik, muammolarga uchramaslik uchun so‘zma-so‘z tarjima qilish emas, balki gapning konteksiga qarab yoki uning ma’nosidan kelib chiqqan holda tarjima qilish yoki muqobil variantini olgan holda tarjima qilish kerak. Shuning uchun ham tarjima jarayonida so‘zma-so‘z tarjima usulidan foydalanilmaydi, ma’nosidan kelib chiqqan holda asliyat tilidan o‘zbek va boshqa tillarga tarjima qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43.
2. Javliyev, M. (2022). «Ona Vatan» konseptining turli vositalar va tushunchalar yordamida talqin qilinishi. Scientific Collection «InterConf», (135), 206-210.
3. Odil o‘g‘li, J. M. (2024). THE IMPORTANCE OF CONCEPT AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH. World Bulletin of Social Sciences, 35, 16-19.
4. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story “A Christmas Carol” by Charles Dickens into uzbek. ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ, 34.
5. Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT’S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. Builders Of The Future, 1(01), 50-52.

6. Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.